



VIRTUAL MAKONDAGI KIBERJINOYATLAR UCHUN JAZO TAYINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rashidxo'jayev Muxriddinxo'ja Muxsinxo'ja o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi kafedrasi xodimi

mukhriddinkhujarashidkhujaev@gmail.com

+998911704751

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10618037>

ARTICLE INFO

Received: 26th January 2024

Accepted: 04th February 2024

Online: 05th February 2024

KEY WORDS

Virtual makon, kiberjinoyat, internet, hakerlik, kibertahdid, kiberfiribgarlik, jazo tayinlash, jinoyatlarni tasniflash.

ABSTRACT

Bugungi kunda virtual makonda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar uchun jazo tayinlash o'ziga xos xususiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada virtual makonda sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning xususiyati, ularning turlari va tavsifi, shuningdek ushbu turdagi jinoyatlar uchun jazo tayinlash mexanizmi va oldini olish bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Bugungi kunda virtual makonda sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati kiberfiribgarlik jinoyati hisoblanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, virtual makonda sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan jazo tayinlash tizimi bugungi kundagi virtual makondagi sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan munosib jazo tayinlash talabiga to'la javob berolmaydi. Virtual makon real makonga nisbatan juda keng va chegarasiz bo'lib, jinoyatchi yer yuzining bir burchagidan turib boshqa burchagidagi ma'lumotlarni osongina qabul qilishi, kimnidir shaxsiy huquqlarini buzishi yoki qaysidir bank hisob raqamini buzib kirib, pullarini o'marishi mumkin. Har bir jinoyat uchun jazo tayinlash, ushbu jinoyatning xususiyatidan keli chiqib belgilanadi, quyida biz virtual makondagi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Virtual makonda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar uchun jazo tayinlashda ushbu jinoyatlarning tarkibini aniqlash bu boradagi jinoyatlarni kvalifikasiya qilishda juda muhim ahamiyatga egadir. Jinoyat kodeksining 16-moddasiga asosan, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi[1]. Jinoyat tarkibini esa, jinoyat qonunchiligida jinoyat deb topish uchun zarur bo'lgan jinoyat ob'ekti, sub'ekti va ushbu jinoyatning obyektiv va subyektiv tomonlari tashkil etadi. Huquqshunos olim A.S.Yakubovning fikricha esa, jinoyat tarkibi jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta'riflovchi eng kam va etarli obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisidir[2]. Kiberjinoyatlarda jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan hech bo'lmaganda biri bo'lmagan taqdirda shaxsni jinoiy javobgarlikka toritish mumkin emasligini ifodalaydi[3].

Virtual makonda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar tarkibini aniqlashtirishda olim A.Norov kiberjinoyat insonlar tomonidan boylik orttirish yoki boshqa g'arazli maqsadlarda



axborot texnologiyalaridan noqonuniy foydalangan holda sodir etilgan xavfli jinoyatdir degan fikrni yuritadi[4].

Haqiqatan ham, ushbu jinoyatlar ko'proq g'arazli maqsadlarda qasddan sodir etiladi va kamdan-kam holatlarda ergi qasddan yoki ehtiyotsizlikdan amalga oshiriladi. Ushbu holat xususida ham olimlar turlicha tushuntirish berishgan, aksariyat olimlar bunday jinoyatning sodir etilishida ayb ko'pincha ehtiyotsizlik yoki egri qasd bilan tavsiflanadi, deydilar. N.I.Korjanskiy ushbu jinoyat ko'pincha beparvolik oqibatida sodir etiladi, deb hisoblasa, D.I.Elmurzaev Rossiya Federatsiyasining qonunchiligiga asosan shaxs qasddan tahdid va g'araz niyatida ushbu jinoyat sodir etadi, deb tushuntirish beradi, A.N.Prikmeta haqiqatan ham ushbu jinoyatlarning sub'ektiv tomonini aybning to'g'ri qasddan sodir etilgani tashkil etadi deb ta'kidlaydi, A.A.Tsirakalyuk esa, ushbu jinoyatlarning ham qasddan, ham ehtiyotsizlikdan sodir etilishi haqida so'z yuritadi[5], M.V.Arzamastsevning fikriga ko'ra, ushbu jinoyatlarning sub'ektiv tomondan qay tariqa sodir etilishi yetarlicha jinoyat qonunchiligida ko'rsatib berilmagan deb ta'kidlasa, A.Naumov, B.Zdravomislov, I.Kozachenko, Z.Neznamov ushbu jinoyatlarning subyektiv tomonini bevosita egri qasd bilan ta'riflaydi[6]. Fikrimizcha esa, olim D.I.Elmurzaev, A.N.Prikmeta va A.Norovning fikrlariga qo'shilish kerak, sababi kiberjinoyatchi oldindan qanday mudhish jinoyat sodir etayotganini biladi, xatto jabrlanuvchi bilan o'zaro kurashda uning yutqazishini ta'minlash maqsadida unga turli xil hujumlarni o'zi xohlab, ongli ravishda unga qanday zarar keltirayotganini bilgan holda amalga oshiradi. Xatto, ba'zi hollarda, bundan g'ururlanish hissiga boradi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarini tahlil etadigan bo'lsak, ba'zi olimlar ushbu jinoyatni ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladi deb hisoblasa, boshqalari esa buni to'g'ri qasddan jinoyat oqibatini bila turib sodir etishadi degan fikrni ilgari surishgan. Biz ushbu holatni tushuntirishimiz uchun istagan Internet kafelarda o'tirgan bolalarning o'zaro guruh shaklida, ularning sog'lig'i va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan internet o'yinlarini o'ynashlari va o'zlarining maqsadini amalga oshirish, o'yinda g'olib bo'lish hamda himoyalani uchun qanday choralarni ko'rayotganligi bilan bog'liq vizual holatni ko'z oldimizga keltirsak, ushbu jinoyatni haqiqatan ham to'g'ri qasddan sodir etilishligini bilib olishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida Ozarbayjon jinoyat qonunchiligida ham ushbu jinoyat subyektiv tomondan to'g'ri qasddan sodir etiladi, jinoyatchi mazkur jinoyatni sodir etishni to'g'ridan-to'g'ri niyat bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, kompyuter tizimiga yoki uning bir qismiga noqonuniy ravishda kirgan kishi o'z harakatlarining noqonuniyligi va ijtimoiy xavfliligini biladi va uni o'zi xohlaydi. Shuningdek, bu yerda yoki boshqa shaxsiy maqsadlarda saqlanadigan kompyuter ma'lumotlarini olish uchun kishi o'zga shaxsning kompyuter tizimiga kirishi kerak.

Virtual makonda sodir etilayotgan jinoyatlarni subyektlari haqida ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Virtual makonda elektron tizimlarni buzish bilan shug'ullanuvchi shaxslar "haker" deb atalishi barchamizga ma'lum. Ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarga jazo tayinlashda ularning yoshi ham muhim ahamiyat kasb etadi. 2001-yil 23-noyabrdagi Kiberjinoyatchilik bo'yicha Budapesht konvensiyasida kiberjinoyatning subyektivi aqli raso voyaga yetgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin deb tushuntirish berilgan. Shuningdek, mazkur konvensiyaga asosan, kiberjinoyatlarning obyektivi ishlab chiqarish, yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, qidirish, uzatish, tarqatish va boshqa funksiyalarni amalga



oshiruvchi, iste'mol bo'yicha axborot jarayonlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan kompyuter texnikasi yoki uning qismi, tizimi va tarmoqlari oid ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Obyektiv tomondan ushbu jinoyatlar yaxlit, but, o'zga shaxs uchun sir ma'lumotlar va tizimni buzish orqali, kompyuter bilan, kompyuter qismi, kontent bilan, mualliflik va turdosh huquqlarni buzish orqali sodir etiladi. Ushbu jinoyatning subyekti yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan istagan shaxs bo'lishi mumkin. Konvensiyada nazarda tutilgan barcha jinoyatlar faqat qasddan sodir etilgan taqdirda javobgarlikka sabab bo'ladi[7]. Yuqorida Budapesht konvensiyasiga ko'ra jinoyat sodir etish subyekti voyaga yetgan aqli raso har qanday shaxs ushbu jinoyat subyekti sifatida e'tirof etiladi. Ko'p davlatlarning jinoyat kodekslarida ushbu turdagi jinoyatlarning subyekti sifatida 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs etib belgilangan. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda internet tarmog'idan foydalanuvchilarning ko'pchiligi yoshlar tashkil etadi, ya'ni 16 yoshga to'lmagan shaxslar ham ushbu jinoyatni sodir etishlari mumkin. Misol uchun internet tarmog'idan va dasturlashdan xabardor bo'lgan 14 yoshli bola tomonidan ham ushbu jinoyat sodir etilishi ehtimoli bugungi kunda yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ushbu turdagi jinoyatlarga jazo tayinlashda jinoyat subyekti sifatida 16 yosh emas 14 yosh etib belgilanishini taklif etmoqchimiz.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa o'rnida ta'kidlashimiz kerakki, mazkur jinoyatlar o'zining og'ir oqibatlariga olib kelishi bilan hamda kam mas'uliyatni olgan holda, tezkor ravishda ko'p foydaga olib kelishi bilan boshqa jinoyatlarga nisbatan alohida ahamiyatga egadir. Shu sababli ham tergov jarayonida ushbu jinoyatning qaysi hududdan va qachon sodir etilgani hamda mazkur jinoyatga oid izlarning tezkorlik bilan yo'q qilinishi mumkinligiga e'tibor qaratish lozim.

Cybersecurity Ventures xalqaro ekspertlarning fikricha, dunyo bo'ylab har har 14 soniyada bitta kiberhujum sodir etilmoqda, Jahon iqtisodiy forumining prognoziga ko'ra, kiberhujumlar natijasida 2022 yilda dunyo 8 trln dollar miqdorida zarar ko'radi. Ushbu zararni bartaraf etish bo'yicha kiberjinoyatlarning oldini olish borasida olimlar turlicha tushuntirish berishga harakat qilib ko'radi, xususan, olim V.S.Xarlamovning fikricha, ushbu muammoning yagona yechimi kiberjinoyatchilik tushunchasini mamlakat jinoyat qonunchiligiga kiritish kerak deb hisoblaydi. Haqiqatan ham, jinoyat qonunchiligimizga ushbu tushuncha kiritilishi lozim. Jumladan, Bolgariya jinoyat kodeksining 319a-319f-moddalarini birlashtirib turgan bob kiberjinoyatlar deb nomlanadi, Gruziyaning jinoyat kodeksining 284-286-moddalarini o'zida birlashtirgan 35-bob "Kiberjinoyatlar", deb nomlanadi, 324-1-moddasida kiberterrorizm uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

M.A.Prostoserdovning ta'kidlashicha, kiberjinoyatlar soni va miqdorini kamaytirish uchun qaysi kiberhujumlar uchun og'irroq jazo belgilanishi bo'yicha ro'yxat ishlab chiqilishi va u amaliyotga tatbiq etilishi zarur deb hisoblaydi[8]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, Yu.M.Baturin kiberjinoyatchilarni yollangan kiberjinoyatchilar, ehtiyotsizlik orqali oqibatini o'ylamagan holda kiberjinoyatni sodir etadiganlar, josuslar, hackerlar, kraker (kompyuter bezori)lari kabi toifalarga bo'lgan va ular tomonidan sodir etgan jinoyatlar uchun javobgarlik ham shunga mutanosib bo'lishi kerak deb tushuntirish beradi[9]. T.M.Lopatina esa, ushbu ro'yxatni o'zgacha fanat (muxlis)lar, ruhiy kasallar va profi (taroziqa solib qo'yadigan)larga



toifalagan holda klassifikatsiya qiladi. Yuqorida keltirilgan olimarning fikrlari har tomondan ham o'rinli hisolanadi.

Ushbu holatni sudlar qilmishni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganidan keyin unga nisbatan javobgarlik bo'lishi kerak deb izohlaydi, biroq ushbu qilmish Jinoyat kodeksiga kiritilmagan va bu bo'yicha alohida javobgarlikni belgilaydigan normalar mavjud bo'lmasa, ushbu qilmishni sodir etgan shaxsni jinoyatchi va u tomonidan sodir etilgan qilmishni ijtimoiy xavfli qilmish deb atashimiz mumkinmi? Aslo yo'q. Shu jihatdan ham, hech bo'lmasa, sudlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning birxilligini ta'minlash maqsadida kiberjinoyatchilik xususida alohida Oliy sud Plenumi qarori qabul qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Virtual jinoyatlarni oldini olishda eng katta xavf, davlat organlari va idoralarning loqaydligi hisoblanadi, tan olish kerakki, aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqligi ham haqiqat. Shu sababdan ham loqaydlikka barham berishimiz, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun zarur davlat dasturlariva yo'l-xaritalarini ishlab chiqib, ularni hayotga tabiq qilishimiz zarur.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. – Т.: 1996. –95 с.
3. Mualliflar jamoasi. Yakubov A.S., Kabulov R., Zaripov Z.S., Qodirov M.M., Mirzajanov Q., Mirenskiy B.A., Pulatov Yu.S., Otajanov A.A. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. // –Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 91 b.
4. Norov A. Axborot xavfsizligi – davr talabi. – Qarshi. Qashqadaryo gazetasi. 25.07.2019. Manba: <http://qashqadaryoz.uz/oz/read/akhborot-khavfsizligi-davr-talabi>.
5. Цыркалюк А.А. Уголовная ответственность за доведение до самоубийства тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, –Тамбов, 2011, –10 с
6. Абдуллаев А.С. Уголовно-правовой и криминологический анализ надругательства над телами умерших и местами их захоронения тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, кандидат юридических наук. – Махачкала. 2002., – С. 168.
7. Convention on cybercrime. Budapest, 23.XI.2001. Манба: <http://www.europarl.europa.eu>.
8. Простосердов М.А. Экономические преступления, совершаемые в киберпространстве, и меры противодействия им Специальность 12.00.08 - уголовное право и криминология; уголовноисполнительное право Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М.: 2016. –36 с.
9. Батурин Ю.М. Право и политика в компьютерном круге. –М.: место издания Наука Москва, 1987. –111 с.